



Bolalardagi nutq kamchiliklarini oldini olishda oilaning o'rnini

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna –

Farg'ona davlat universiteti dotsent
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: md buzrukova@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2780-9087>

Ismoilova Mohichehraxon Rasuljon qizi –

Farg'ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarining oldini olish hamda ularni korreksiya qilishda oilaviy muhit va otalarning pedagogik-psixologik kompetensiyasi tadqiq etilgan. Bolaning ilk nutqiy ko'nikmalari bevosita oilada shakllanishi sababli, ota-onaning bola bilan muloqot madaniyati, nutqiy muhit to'g'riligi va turli sensor hamda mnemotexnik o'yinlardan foydalanish darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nutq kamchiliklari, oilaviy muloqot, profilaktika, logopediya, maktabgacha yosh, milliy qadriyatlar, mnemotexnika, korreksion pedagogika.

Роль семьи в профилактике речевых нарушений у детей

Аннотация. В данной статье исследуются семейная среда и психолого-педагогическая компетентность родителей в предупреждении и коррекции речевых нарушений, встречающихся у детей дошкольного возраста. Поскольку первые речевые навыки ребёнка формируются непосредственно в семье, проанализированы культура общения родителей с ребёнком, правильность речевой среды, а также уровень использования различных сенсорных и мнемотехнических игр.

Ключевые слова: речевые нарушения, семейное общение, профилактика, логопедия, дошкольный возраст, национальные ценности, мнемотехника, коррекционная педагогика.

The role of the family in preventing speech disorders in children

Annotation. This article examines the family environment and the pedagogical and psychological competence of parents in preventing and correcting speech disorders observed in preschool children. Since a child's initial speech skills are formed directly within the family, the article analyzes parents' culture of communication with the child, the quality of the speech environment, and the level of use of various sensory and

mnemonic games.

Keywords: *speech disorders, family communication, prevention, speech therapy, preschool age, national values, mnemonics, correctional pedagogy.*

KIRISH

Inson shaxsining shakllanishi, uning ijtimoiy muhitga moslashishi va intellektual salohiyatining rivojlanishida nutq eng muhim vosita. Shu bois bolaning har tomonlama sog'lom va barkamol rivojlanishida nutq asosiy poydevor hisoblanadi. Zamonaviy maxsus pedagogika va logopediyaning eng dolzarb muammolaridan biri - bolalarda uchraydigan turli darajadagi nutqiy nuqsonlarning dislaliya, alaliya, dizartriya, nutqning umumiy rivojlanmaganligi yil sayin ko'payib borayotganligidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asrida bolalarning gadjetlarga bog'lanib qolishi va oilada jonli muloqotning kamayishi nutqiy tormozlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda jamiyatimizda maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida nutq kamchiliklarining (fonetik-fonematik rivojlanishning orqada qolishi, nutqning umumiy rivojlanmaganligi va duduqlanish kabi nuqsonlarning) yil sayin ortib borayotgani ushbu muammoga zamonaviy logopedik yondashuvlarni talab etmoqda.

Nutq kamchiliklarini erta bartaraf etish va ularning oldini olishda faqatgina ta'lim muassasasi yoki logoped faoliyati yetarli emas. Bola hayotining dastlabki yillarida eng ko'p vaqt o'tkazadigan muhit - bu oiladir. Bugungi kunda ko'plab ota-onalarning logopedik kompetentligi (savodxonligi) yetarli darajada emasligi, oilada raqamli texnologiyalar (gadjetlar) sababli jonli muloqot madaniyatining pasayishi bolalarda nutqiy anomaliyalarning chuqurlashishiga olib kelmoqda. Mnemotexnika elementlaridan hamda milliy qadriyatlarimiz (allalar, xalq og'zaki ijodi, masal, latifa, lof, topishmoqlar) xazinasidan oilaviy muhitda unumli foydalanish bolalarning nutqiy faolligini oshirish va nutq qusurini erta profilaktika qilishning eng samarali strategiyasidir. Shu sababli, oilada bolaning muloqot madaniyatini yuksaltirish, ota-onalarning logopedik madaniyatini shakllantirish hamda profilaktika jarayonini ilmiy-metodik jihatdan tizimlashtirish lozim.

Bolaning nutqi shakllanishining ilk va eng faol davri (0-5 yosh) bevosita oila muhitiga to'g'ri keladi. Biroq ko'plab ota-onalar boladagi nutqiy kechikishlar yoki tovush talaffuzidagi xatoliklarga "vaqt o'tib o'zi tuzalib ketadi" qabilida yondashdilar, bu esa keyinchalik maktab davrida yozma nutq nuqsonlariga sabab bo'ladi. Ya'ni ko'pchilik ota-onalar bu davrda bola so'zlarni tushunmaydi deb hisoblab, u bilan kam muloqotda bo'ladilar. Vaholanki, psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, go'dak onaning ovoz intonatsiyasini, hissiy holatini juda erta farqlaydi. Oiladagi "ona-bola" dialogi (garchi u faqat tovushlar va tabassumdan iborat bo'lsa-da) bolada muloqotga bo'lgan ichki ehtiyojni muloqotga moyillik refleksiini uyg'otadi. Agar oilada ota-onaning muloqot xulqi boy, mazmunli va tizimli bo'lsa, bolaning miya po'stlog'idagi nutq zonolari (Broka va Vernike markazlari) faol signallar qabul qiladi va sinapslar ya'ni asab tolalari bog'lanishi tezroq shakllanadi. Aksincha, agar oilada "nutqiy deprivatsiya" ya'ni muloqot yetishmasligi kuzatilsa, miyaning ushbu qismlari funksional jihatdan zaiflashadi, bu esa nafaqat nutqning, balki umumiy intellektning ham orqada qolishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mashhur neyropsixolog va tilshunos Aleksandr Luria nutqning inson miyasida tashkil etilishi va uning intellekt bilan aloqasini o'rganib, nutqni "ongni shakllantiruvchi eng quvvatli qurol"[1] deb atagan. A.Luria va L.Vigotskiy hamkorlikda olib borgan izlanishlarida bolaning nutqi dastlab tashqi muloqot vositasi bo'lsa, keyinchalik u bolaning o'z xulq-atvorini boshqaradigan, fikrlashini tizimlashtiradigan ichki nutqqa aylanishini isbotlaganlar.

O'zbekiston maxsus pedagogikasi va logopediyasida bolalar nutqining ijtimoiy muhit, xususan, oilaviy muloqot tizimida shakllanishi masalasi bir qator yetakchi mahalliy olimlar

tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, respublikamizda logopediya sohasining poydevorini yaratgan yetakchi olim L.R.Mo'minova o'zining ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini bartaraf etishda oilaning roli va ota-onalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarga alohida urg'u beradi. Olimaning fikricha: "Boladagi har qanday mikronutqiy muammolarni va tildagi orqada qolish holatlarini erta aniqlash hamda uning oldini olish bevosita oilaviy mikromuhitning madaniyatiga bog'liq. Logopedik yordam tizimi ota-onani passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirgandagina o'zining ijobiy samarasini beradi." [2] Nutq kamchiliklari bo'lgan bolalar shaxsini o'rganish va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish borasida izlanishlar olib borgan pedagog-olima M.Y.Ayupova ham bolalar nutqini normal shakllantirishda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholagan. U o'zining amaliy-metodik qarashlarida shunday ta'kidlaydi: "Oila – bolaning tili chiqadigan va ilk muloqot ko'nikmalarini o'zlashtiradigan birlamchi ijtimoiy maskandir. Kattalarning nutqiy beparvoligi yoki bola bilan muloqotning yetishmasligi undagi intellektual va fonematik rivojlanishni tormozlab qo'yishi mumkin. Shu sababli, oilada nutqiy rejimni to'g'ri tashkil etish logopedik profilaktikaning eng birinchi shartidir [3]." Shuningdek, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar nutqini va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlar zaminida tarbiyalash masalalarini tadqiq etgan professor F.R.Qodirova bolaning muloqot xulqi bevosita jonli til muhitida shakllanishini asoslab bergan. Olimaning fikricha:

"Bolalarda muloqot madaniyatini va faol nutqni shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari, topishmoq va tez aytishlar beqiyos manba hisoblanadi. Oilaviy muhitda ushbu vositalardan muntazam foydalanish bolaning lug'at boyligini oshiribgina qolmay, undagi nutqiy faollik inqirozlarining oldini oladi." [4] Shunday qilib, o'zbek logoped-olimlari va pedagoglarining ilmiy xulosalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi kamchiliklarni erta profilaktika qilish faqatgina logoped xonasidagi mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Mazkur tadqiqot ishimizda ilgari surilayotgan oilaviy sharoitda zamonaviy mnemotexnika elementlari hamda milliy folklor namunalari uyg'unlashtirib qo'llash g'oyasi yuqorida zikr etilgan olimlarning ilmiy qarashlarini amaliy jihatdan boyitishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bola tabiatan taqlidchi. U tildagi tovushlarni, urg'uni, so'z yasash qoliplarini va hatto gapirish ohangini ham bevosita oila a'zolaridan ko'chirib oladi. Logopediyada ota-onalarning nutqiy madaniyati eng birinchi profilaktik omil hisoblanadi. Agar oilada kattalar juda tez, tushunarsiz yoki so'zlarni buzib, erkalab gapirsa, bola buni "to'g'ri norma" deb qabul qiladi. Natijada bolada fonetik va artikulyatsion ya'ni ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish yuzaga keladi. Bolaning nutqiy faolligi uning oiladagi hissiy xavfsizligiga bog'liq. Ota-ona bolaning fikrini tinglaydi, u bilan teng huquqli suhbatdoshdek muloqot qiladi. Bu bolada nutqiy o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Haddan tashqari vasiylik esa, ya'ni bolaga gapirishga imkon berilmaydi, uning ehtiyojlari imo-ishorasidanoq qondiriladi. Bunday muhitda bolada gapirishga ehtiyoj qolmaydi, natijada nutqiy passivlik va tildan qochish holatlari shakllanadi. Bu esa keyinchalik psixogen xarakterdagi duduqlanishning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Oila – bolaning til tizimini o'zlashtirishdagi bosh kinetik kuch va muloqot makonidir. Oiladagi muloqot xulqining tabiati, kattalarning nutqiy savodxonligi, hissiy munosabatlar va jonli muloqotning mavjudligi bolada nutq buzilishlarining oldini olishda markaziy o'rinni egallaydi. Uy sharoitida logopedik ko'makni to'g'ri yo'naltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi kabi muassasalarning mutaxassislaridan maslahat olish va ularning maxsus mashqlar dasturlariga tayanish talab etiladi. Bola bilan uyda ko'proq badiiy kitoblar o'qish, mayda motorikani (qo'l barmoqlarini) rivojlantiruvchi o'yinlar o'ynash va to'g'ri nutq namunasini doimiy ko'rsatib turish muhim ahamiyatga ega [5]. Bola nutqi uning tafakkuri, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishining muhim ko'rsatkichidir. Nutq orqali bola atrof-muhitni anglaydi, o'z fikrlarini ifodalaydi va muloqotga kirishadi. Shu bois nutqni

shakllantirish jarayonida eng asosiy omillardan biri –bu oila muhitidir. Chunki bola ilk so'zlarni aynan oilada, yaqinlari bilan muloqot jarayonida o'rganadi. Nutq insonning tafakkuri va ijtimoiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, bolalik davrida nutqning shakllanish jarayoni murakkab va izchil kechadi. Bunda eng asosiy omil bu oila muhiti sanaladi. Chunki bola dastlabki so'zlarni, tovushlarni va muloqot qoidalarini aynan oilada egallaydi. Ota-ona va yaqinlarning mehribonligi, e'tibori hamda nutqiy namunasi bolaning nutqiy rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Oilaviy muhitning ta'siri: bolaning nutqiy rivojlanishi, avvalo, uning oilaviy sharoiti, ota-ona va qarindoshlar bilan muloqoti darajasiga bog'liq.

Oila a'zolarining logopedik kompetentligini va oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini har tomonlama baholash uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalansh mumkin:

1. Anketashtirish va so'rovnoma metodi

Bu metod orqali qisqa vaqt ichida ota-onalardan bolaning anamnezi (rivojlanish tarixi) va oiladagi umumiy vaziyat haqida birlamchi ma'lumotlar yig'iladi. BMI amaliy qismi uchun maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi:

Tibbiy-biologik blok: Homiladorlik va tug'ruq jarayonining kechishi, bolaning ilk yoshdagi nutqiy rivojlanish bosqichlari (g'uldirash, guvillash, ilk so'zlar).

Pedagogik-psixologik blok: Ota-onaning fikricha, bolaning nutqi qachondan boshlab tengdoshlaridan ortda qola boshlagan yoki duduqlanish/kamchiliklar qachon paydo bo'lgan? Bunga oilada qanday munosabat bildirilgan?

2. Maqsadli suhbat metodi

Suhbat ota-ona bilan individual tarzda, erkin va ishonchli muhitda o'tkaziladi. Suhbat davomida anketa savollariga aniqlik kiritiladi. Asosiy e'tibor ota-onaning boladagi nuqsonga bo'lgan psixologik reaksiyasiga qaratiladi: ba'zi ota-onalar muammoni inkor etsa (anosognoziya), boshqalari haddan tashqari xavotirga tushadilar, bu esa boladagi nutqiy qo'rquvni (logofobiya) yanada kuchaytirishi mumkin.

3. Kuzatish metodi (Tizimli monitoring)

Logoped va tarbiyachining ota-ona hamda bolaning muloqotini bevosita kuzatishi. Kuzatuv bolani bog'chaga olib kelish va ketish jarayonida, ochiq mashg'ulotlarda yoki oilaviy uchrashuvlarda amalga oshiriladi. Bunda ota-onaning bola bilan muloqotga kirishish darajasi, undan qay darajada ravonlikni talab qilayotgani va nutqiy xatolariga qanday munosabatda bo'layotgani baholanadi.

Ota-ona bola bilan birgalikda xalq topishmoqlarini shunchaki yodlamasdan, ularni mnemo-kataklar shakliga o'tkazadi va u yerdagi tovushlarni tahlil qiladi.

Amaliy misol (Topishmoq: "Tarvuz"): "Yashil qulfi bor, qizil kuchi bor, ichida qora doni bor."

Mnemotexnik vizuallashtirish tizimi (Ota-ona chizadi):

1-katak: Yashil rangli qulf rasmi (Bola buni ko'rib: "Yashil qulfi bor" deb jumalani shakllantiradi).

2-katak: Qizil rangli bo'yoq yoki yurak rasmi ("Qizil kuchi bor").

3-katak: Qora rangli kichik nuqtalar/donlar rasmi ("Ichida qora doni bor").

Nutqiy faollikni oshirish jarayonida bola ushbu 3 ta rasmlni katakka qarab, hech qanday to'xtalishsiz, duduqlanmasdan va hayajonlanmasdan topishmoq matnini ravon, ritmik tarzda aytib beradi. Rasmlar uning xotirasini va nutq rejasini boshqarib turadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Psixologlar ta'kidlashicha, bolaning ilk uch yili nutq rivoji uchun "oltin davr" hisoblanadi. Chunki bu paytda bola tezkorlik bilan yangi so'zlarni o'zlashtiradi. Muloqot sifati va chastotasi ya'ni nutq faqat ko'p gapirish orqali emas, balki mazmunli muloqot orqali rivojlanadi. Ota-ona bolaga savol berib, uning javobini diqqat bilan eshitishi, keyin izoh berishi kerak. Shunchaki buyruq va ko'rsatmalar ("ovqat ye", "o'tir", "jim bo'l") bolaning so'z boyligini kengaytirmaydi. Nutqiy muhitning boyligi uy sharoitida turli

mavzularda suhbatlashish (tabiat, hayvonlar, mehnat jarayoni haqida) bolaning lug'at boyligini oshiradi. Har xil intonatsiyada gapirish, ohangdor nutq (she'r, qo'shiq) bolaning talaffuzini ravon qiladi. Nutqiy qiyinchiliklarning oldini olishda agar ota-onalar bolaning nutqida logopedik muammolar (dislaliya, duduqlanish, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish)ni erta sezsa, mutaxassisga murojaat qilishi muhim. Nutqiy qiyinchiliklarni vaqtida tuzatmaslik bola psixikasiga ham salbiy ta'sir qiladi [6]. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ta'kidlaydiki, nutqni rivojlantirishda interfaol metodlar (rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari, dramatizatsiya) samarali hisoblanadi. Axborot texnologiyalari yordamida audio-kitoblar, interaktiv o'yinlar va mobil ilovalardan oqilona foydalanish tavsiya etiladi. Tadqiqotlardan keltirilgan misollarga ko'ra psixologlarning kuzatishicha, oilada har kuni kamida 30 daqiqa kitob o'qib berilgan bolalarning nutqiy rivoji boshqalarga qaraganda tezroq kechadi. Ota-onasi tez-tez suhbat qiladigan bolalar 5–6 yoshida o'rtacha 1500–2000 so'zli lug'atga ega bo'ladi.

Pedagogik yondashuv Maktabgacha ta'lim metodikasida (Xasanboeva, Sattorova va boshqalar) bola nutqini o'stirish uchun quyidagi tamoyillar muhim deb hisoblanadi:

1. Ota-onaning nutqiy namunalari – bola ko'proq onasi yoki otasining so'zlash tarzini takrorlaydi.

2. O'yin va ijodiy mashg'ulotlar – rolli o'yinlar, qo'g'irchoqlar bilan suhbat, ertak to'qish bolaning nutqini boyitadi.

3. Kitobxonlik va ertaklar – xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar lug'atni kengaytirib, ifodaviy nutqni shakllantiradi.

4. Texnologik vositalar –audio-kitoblar, multfilmlar, interaktiv dasturlar yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi, ammo asosiy ta'sirni oila muhiti beradi.

Tadqiqotimiz doirasida ota-onalarning logopedik kompetentligi tuzilmasini uchta asosiy komponentga ajratib o'rganishni lozim topdik:

Kognitiv-bilish komponent: Ota-onalarning bola nutqi normalari, duduqlanish yoki boshqa nutqiy patologiyalarning belgilari, ularning kelib chiqish sabablari ya'ni tibbiy, psixologik, ijtimoiy hamda oiladagi noto'ri tarbiya munosabatlarining nutqqa salbiy ta'siri haqidagi nazariy tushunchalari tizimi. Motivatsion-shaxsiy komponent: Ota-onalarning boladagi nutqiy muammoni to'g'ri, adekvat qabul qilishi, uni bartaraf etishga bo'lgan yuqori motivatsiyasi, logoped bilan hamkorlik qilishga tayyorligi hamda bolaning emotsional holatiga nisbatan empatiyasi. Faoliyatli-texnologik komponent: Ota-onalarning logoped tomonidan berilgan amaliy tavsiyalar, mashqlar va usullarni (masalan, nafas mashqlari, artikulyatsion gimnastika, logopedik ritmika elementlari, mnemotexnik vositalar) uy sharoitida, kundalik muloqot jarayonida to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari. Oiladagi nutqiy-tarbiyaviy imkoniyatlar deganda esa nafaqat moddiy yoki didaktik ta'minot (kitoblar, o'yinchoqlar, mnemojadvallar), balki eng avvalo ma'naviy-psixologik iqlim, oila a'zolarining nutq madaniyati, muloqot jarayonida o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan, milliy qadriyatlardan foydalanish darajasi tushuniladi.[7,88-93]

Milliy qadriyatlarga asoslangan o'yinlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish, milliy bayramlar va urf-odatlarini oila davrasiga integratsiyalash bolalarda ijtimoiy faollik va ijobiy xulq-atvorning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yaqin qarindoshlar yoki tengdoshlari bilan muloqot yoki o'yin jarayonida bolalarning o'z fikrini erkin ifodalashi, jamoada hamkorlik qilish ko'nikmalari rivojlanganligi kuzatildi. Tahlil natijalariga ko'ra, an'anaviy, milliy qadriyatlarga yo'naltirilgan kechki oilaviy suhbatlar bolalarning milliy urf-odat va an'analarga qiziqishini, axloqiy me'yorlarga amal qilishini, kattalarga hurmat va tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar nutqining shakllanishida oila muhitining o'rnini beqiyosdir. Agar oilada milliy qadriyatlarga amal qilinsa, bolalar ham bu qadriyatlarni oson o'zlashtiradi. Ota-onalarning

bolalar bilan ko'proq suhbatlashishi, ertaklar aytib berishi, maqollar o'rgatishi nutq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida nutq madaniyatini shakllantirish – ularning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim omildir. Bu jarayonda xalq og'zaki ijodi, milliy an'ana va urf-odatlardan samarali foydalanish bolalarning nafaqat nutqini rivojlantiradi, balki ularda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini ham shakllantiradi. Oila muhitida milliy qadriyatlar va xalq og'zaki ijodining korreksion imkoniyatlari cheksiz. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari - allalar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertaklar va barmoq o'yinlari o'zining ritmik tuzilishi, ohangdorligi va tovushlar uyg'unligi bilan ajralib turadi. Duduqlanuvchi yoki fonematik rivojlanishi orqada qolgan bolalar uchun ushbu janrlar tabiiy logopedik ritmika vazifasini o'taydi. Oila muhitida ota-onalar tomonidan ushbu vositalardan maqsadli foydalanilishi bolaning nutqiy hayajonini pasaytiradi va fonematik tushunchalarini tabiiy ravishda shakllantiradi. Oilada mehr-muhabbat, iliqlik va doimiy e'tibor hukm sursa, bola o'z fikrlarini erkin ifoda etishga intiladi va uning nutqi tabiiy ravishda ravon shakllanadi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ham nutq rivojida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo ular faqat ota-ona nazorati ostida, maqsadga muvofiq qo'llangandagina ijobiy natija beradi. Shu bois, har bir oila farzandining nutqiy rivojiga befarq bo'lmasligi, unga erta yoshdan boshlab qulay sharoit yaratishi, suhbat va kitobxonlik an'anasini yo'lga qo'yish lozim. Etiopatogenetik tahlillar shuni ko'rsatadiki, agar nuqson kelib chiqishida oilaviy muhit aybdor bo'lsa, uni bartaraf etishda ham eng katta kuch oilaning o'zida yotadi. Bolaning asab tizimi juda plastik (moslashuvchan) bo'lib, maktabgacha yosh davrida yuqori kompensatsiya (yetishmayotgan funksiyani boshqa a'zo yoki usul bilan to'ldirish) imkoniyatiga ega. Agar oilada ota-onalar o'z muloqot xulqini o'zgartirsalar, bola bilan ko'proq kitob o'qib, mnemotexnik usullardan foydalansalar, miya po'stlog'idagi nutq markazlarining patogenetik zaifligi tezda bartaraf etiladi va bola o'z tengdoshlarining nutqiy me'yoriga yetib oladi.

Ota-onalarning logopedik va metodik savodxonligini oshirish, zamonaviy mnemotexnika, Pecha-Kucha va Tangram kabi metodlardan unumli foydalanish hamda bularning barchasini milliy qadriyatlarimiz (alla, ertak, topishmoq va maqollar) bilan uyg'unlashtirish nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish kafolatidir. Oila faoliyati nafaqat nutqiy nuqsonlarni korreksiyalaydi, balki o'z fikrini mustaqil, ravon va milliy odob qoidalariga mos ravishda bayon eta oladigan komil inson shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Oilaviy ikki tillilik ya'ni oilada ota-onaning tartibsiz ravishda, tizimsiz ravishda ikki yoki undan ortiq tilda (masalan, aralash holda o'zbek va rus tillarida) gaplashishi. Bolaning differensial eshitish qobiliyati hali to'liq rivojlanmagan davrda ikki til grammatikasi va fonetikasining to'qnashishi bolada nutq sur'atining buzilishiga, so'zlarni chalkashtirishga va nutq rivojlanishining umumiy sekinlashishiga olib keladi.

Raqamli o'yinchoqlar va ekran deprivatsiyasi – bu yuqorida aytilganidek, oilada jonli muloqot o'rnini planshet va telefonlarning egallashi bolada nutqning kommunikativ funksiyasini tormozlaydi. Bola axborotni faqat passiv qabul qiladi, lekin o'zi javob qaytarmaydi. Bu esa nutq ontogenezineng eng muhim qonuniyati bo'lgan dialogik nutq tizimini buzadi. Bolalardagi nutq kamchiliklarining oldini olish faqatgina logopedning professional faoliyatiga bog'liq emas. Oila - nutq shakllanadigan asosiy tabiiy laboratoriyadir. Ota-onaning e'tiborsizligi nutq kechikishini chuqurlashtirsa, ularning metodik savodxonligi nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish muddatini 2-3 barobarga qisqartiradi.

Olingan ilmiy-amaliy natijalarga tayanib, quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

1. **Raqamli gigiyena:** Maktabgacha yoshdagi bolalarning gadjetlar (telefon, planshet) bilan o'tkazadigan vaqtini kuniga 20-30 daqiqa bilan cheklash, ularning o'rnini ota-ona bilan jonli muloqotga almashtirish.

2. **Milliy qadriyatlarga tayanish:** Oilada milliy muloqot madaniyatini shakllantirish, xalq ertaklari, topishmoqlar va tez aytishlardan muntazam foydalanish. Bu bolaning fonematik eshitish qobiliyatini charxlaydi.

3. **Kichik motorikani rivojlantirish:** Uydagi oddiy ashyolar yordamida masalan, dukkakli mahsulotlarni saralash, loy va plastilin bilan ishlash orqali barmoq muskullarini rivojlantirish. Chunki qo'l barmoqlari proeksiyasi bosh miya qobig'idagi nutq markazi (Broka zonasi) bilan uzviy bog'liqdir.

4. **Pedagogik-logopedik targ'ibot:** Mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotlari qoshida "Yosh ota-onalar logopedik maktabi" to'garaklarini tashkil etish va ularni metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vygotsky L. S. Thinking and Speech. - Moscow: Labyrinth, 1999. - P. 124-130.
2. Levina R. E. Fundamentals of the Theory and Practice of Speech Therapy. Moscow: Prosveshchenie, 1967. pp. 45-52.
3. Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: 2011.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: 2021.
5. Muminova L. . Logopedik yordam ko'rsatish tizimida oila bilan ishlash uslubi. — Toshkent, 2018.
6. Nurkeldiyeva D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi. – Toshkent: 2021.
7. Shermatova N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini milliy qadriyatlar negizida rivojlantirish omillari.- Tashkent, 2023.